

DEMOKRATIYA VA AXBOROT ERKINLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Nazirova Odina Abdurahmon qizi

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti. 1-kurs talabasi.
(Jurnalistika 25-07).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17167005>

Annotatsiya. Maqolada demokratiya va axborot erkinligi tushunchalari, ularning o'zaro bog'liqligi, zamonaviy demokratik jamiyatdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Axborot erkinligi cheklanishining oqibatlari, shuningdek, O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi.

Demokratik boshqaruv va fuqarolik jamiyati rivojida axborot erkinligining zaruriy shart ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: demokratiya, axborot erkinligi, fuqarolik jamiyati, oshkoralik, so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida demokratiya va axborot erkinligi masalalari davlatlarning siyosiy barqarorligi va jamiyatning rivojlanishini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Demokratiyaxalq hokimiyati bo'lsa, axborot erkinligi- bu hokimiyatni ochiq, shaffof va javobgar qilishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Agar jamiyatda erkin axborot almashinuvi mavjud bo'lmasa, fuqarolar o'z siyosiy huquqlaridan to'liq foydalana olmaydi. Aksincha, axborot oqimi to'silib qolsa, siyosiy qarorlar faqat tor doiradagi kuchlar tomonidan qabul qilinadi va bu demokratiyani zaiflashtiradi. Shuning uchun demokratiya va axborot erkinligi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Demokratiya tushunchasi va uning tamoyillari

Xo'sh, demokratiya o'zi nima degani? "Demokratiya" atamasi yunoncha "demos"- xalq va "kratos"-hokimiyat so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "xalq hokimiyati" ma'nosini anglatadi. Demokratiya- bu faqat saylov tizimi emas, balki inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan davlat boshqaruvi shaklidir. Uning asosiy tamoyillari quyidagilar:

Xalq hokimiyati. Barcha siyosiy hokimiyat manbai xalq hisoblanadi. Qonun ustuvorligi.

Har bir fuqaro qonun oldida tengdir.

Inson huquqlari. Fuqarolarning asosiy huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Oshkoralik va shaffoflik. Davlat qarorlari ochiq muhokama qilinadi.

Fuqarolik jamiyati. NNT, OAV va jamoat tashkilotlari faoliyati qo'llab quvvatlanadi.

Demokratiya jamiyatda barqarorlik, adolat va ishonchni ta'minlash uchun zarur. Ammo bu tizim faqat axborot erkinligi mavjud bo'lganidagina to'liq ishlaydi.

Axborot erkinligi tushunchasi va xalqaro standartlar.

Axborot erkinligi – insonning axborot izlash, olish, tarqatish va undan foydalanish huquqidir. Bu huquq ko'plab xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil, 19- modda): "Har bir inson fikr bildirish va uni erkin ifoda etish huquqiga ega".

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966- yil): axborot izlash, qabul qilish va tarqatish erkinligi kafolatlanadi.

Yevropa inson huquqlari konvensiyasi(10-modda): soʻz va axborot erkinligi asosiy huquq sifatida tan olinadi.

Shunday qilib, axborot erkinligi nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro meʼyorlar bilan ham mustahkamlangan.

Demokratiya va axborot erkinligi oʻrtasidagi bogʻliqlik

Demokratiya va axborot erkinligi bir- biri bilan bivosita bogʻliq. Ularning oʻzaro aloqasini quyidagicha koʻrish mumkun:

1.Ochiqlikni taʼminlash. Davlat qarorlari haqida erkin maʼlumot boʻlmasa, xalq ongli ravishda siyosiy qaror qabul qila olmaydi.

2.Jamoatchilik nazorati. OAV hokimiyatini nazorat qiladi, korrupsiya va suiisteʼmollarning oldini oladi.

3.Fuqarolarning siyosiy faolligi. Axborot erkinligi saylovchilarning ongli tanlov qilishiga yordam beradi.

4.Ijtimoiy barqarorlik. Ochiq axborot muhitida jamiyat va hokimiyat oʻrtasida ishonch mustahkamlanadi.

Shu sababli axborot erkinligi demokratik tizimning poydevori hisoblanadi.

Axborot erkinligi cheklanishining oqibatlari.

Agar jamiyatda axborot erkinligi cheklansa, bir qator salbiy oqibatlar yuzaga keladi:

1.Senzura. Faqat rasmiy manbaalarga asoslangan biryoqlama axborot tarqatiladi.

2.Dezinformatsiya. Yolgʻon xabarlar, propaganda va feyk yangiliklar jamiyatni chalgʻitadi.

3.Fuqarolik faolligining pasayishi. Axborot yetishmasa, odamlar siyosiy jarayonlardan chetlashadi va bu oʻz oʻrnida davlat va xalq oʻrtasidagi bogʻliqlikni uzadi.

4.Jamiyatdagi ishonchsizlik. Fuqarolar hokimiyatga va OAVga ishonmay qoʻyadi.

Demokratiya uchun bu holat xavfli, chunki axborot erkinligi cheklangan davlatlarda odatda avtoritarizm kuchayadi.

Oʻzbekiston tajribasi

Oʻzbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyat qurish yoʻlidan bormoqda. Soʻnggi yillarda axborot erkinligi borasida sezilarli yutuqlar kuzatildi:

Qonunchilik bazasi. “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonun, “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi qonun, “Ochiq maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilindi.

Ochiqlik siyosati. Davlat idoralari faoliyatida oshkoralik kuchaydi, matbuot anjumanlari yoʻlga qoʻyildi.

Internet erkinligi. Koʻplab xalqaro saytlar ochildi, ijtimoiy tarmoqlar faoliyati kengaydi.

Jurnalistlar faoliyati. Jurnalistika sohasi rivojlanmoqda, bloggerlar ijtimoiy muammolarni koʻtarib chiqmoqda, yaʼni soʻz erkinligi kuchaydi.

Shu bilan birga, ayrim hollarda davlat organlaridan axborot olishdagi toʻsiqlar, OAV faoliyatiga bosim kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu demokratiya va axborot erkinligi uygʻunligida hal qilinishi zarur boʻlgan masalalardir.

Xorijiy tajriba

Demokratiya va axborot erkinligi rivojlangan davlatlarda qanday ishlashini koʻrsatish muhimdir:

AQSh. Birinchi tuzatma (1791-yil) soʻz va matbuot erkinligini kafolatlaydi. OAV davlat hokimiyatining eng muhim nazoratchisi hisoblanadi.

Germaniya. Konstitutsiyaning 5-moddasi soʻz va axborot erkinligini mustahkamlaydi.

Jamoatchilik televideniyesi va mustaqil matbuot demokratiyaning asosiy institutlaridan biridir.

Skandaviya mamlakatlari. Axborot erkinligi boʻyicha eng yuqori koʻrsatgichlarga ega.

Masalan, Shvatsiyada 1766- yilda “Matbuot erkinligi toʻgrisidagi qonun” qabul qilingan.

Avtoritar davlat. Bunday mamlakatlarda axborot oqimi qatʼiy nazorat ostida boʻladi. Bu korrupsiya, inson huquqlari buzilishi va jamiyatning noroziligiga olib keladi.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, axborot erkinligi mavjud boʻlmagan jamiyatda barqaror demokratiya shakllanmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, demokratiya va axborot erkinligi bir- biridan ajralmas tushunchalardir. Demokratiya xalq hokimiyatini ifodalasa, axborot erkinligi shu hokimiyatning ochiqligini taʼminlaydi. Axborot erkinligi cheklangan joyda demokratiya faqat shaklan mavjud boʻladi.

Oʻzbekiston tajribasi ham koʻrsatadiki, soʻnggi yillarda bu yoʻnalishda sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo yutuqlar bilan birga muommolar ham mavjud, ularni hal etish demokratik jamiyatning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Demokratik taraqqiyotning muhim sharti – axborot erkinligini kafolatlashdir. Ochiq axborot muhiti mavjud boʻlganidagina davlat va jamiyat oʻrtasidagi ishonch, hamkorlik va barqarorlik yuzaga keladi.

Foydalanilgan manbaalar:

1. Robert A. Dahl. Democracy and Its Critics. Yale University Press, 1989.
2. Jurgen Habermas. The Structural Transformation of the Public Sphere. MIT Press, 1991.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. “Ommaviy Axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonun (1997-yil, tahrirda 2007-yil)
5. “Ochiq maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi qonun (2014)
6. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil)
7. Freedom House. Freedom of the Press Report. (soʻnggi yillar hisoboti)
8. Wikipedia.